




## THE SYNTACTIC AND MORPHOLOGICAL ANALYSIS OF VERBS IN HAFEZ SHIRAZI'S GHAZALS

**Muhammadali Nig'matillayev**

3rd-year student of the Persian-English group  
"Persian and Afghan Studies" Faculty  
Tashkent State Institute of Oriental Studies

**N. Nuriddinov**

PhD, Associate Professor  
Faculty of Persian and Afghan Studies  
Tashkent State Institute of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Simple verb, prefixed verb, compound verb, affixation, semi-affixation, composition, prefix.

**Received:** 28.04.25

**Accepted:** 10.05.25

**Published:** 14.05.25

**Abstract:** In this article, the verbs used in Hafez Shirazi's ghazals have been studied and analyzed. After extracting the verbs from the selected ghazals, they were examined in terms of structural composition. Morphologically, they were classified into groups such as simple, prefixed, and compound verbs.

## HOFIZ SHEROZIY G'AZALLARIDAGI FE'LLARNING TARKIBIY VA MORFOLOGIK TAHLILI

**Nig'matillayev Muhammadali**

3-kurs fors-ingliz guruhi talabasi  
"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

**N. Nuriddinov**

Dotsent, PhD  
"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi  
TDSHU  
Toshkent, O'zbekiston

---

**MAQOLA HAQIDA**


---

**Kalit soʻzlar:** sodda feʼl, prefiksli feʼl, qoʻshma feʼl, affiksatsiya, poluaffiksatsiya, kompozitsiya, prefiks.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Hofiz Sheroziyning gʻazallarida keltirilgan feʼllar oʻrganib tadqiq etildi. Asardan tanlangan gʻazallardagi feʼllar ajratib olingach, ular tarkibiy tuzilish jihatidan tahlilga tortildi. Morfologik jihatdan ular sodda, prefiksli va qoʻshma feʼllar singari guruhlariga ajratildi.

---

## СИНТАКСИЧЕСКИЙ И МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГЛАГОЛОВ В ГАЗЕЛЯХ ХАФИЗА ШИРАЗИ

**Мухаммадали Нигматиллаев**

*Студент 3-го курса группы персидско-английского отделения*

*Факультет "Персидская и афганская филология"*

*Ташкентский государственный институт востоковедения*

**Н. Нуриддинов**

*кандидат наук*

*доцент факультета персидской и афганской филологии*

*Ташкентского государственного института востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**


---

**Ключевые слова:** Простой глагол, префиксальный глагол, сложный глагол, аффиксация, полуаффиксация, композиция, префикс.

**Аннотация:** В этой статье были изучены и проанализированы глаголы, используемые в газелях Хафеза Ширази. После извлечения глаголов из выбранных газелей они были исследованы с точки зрения структурного состава. Морфологически они были классифицированы на такие группы, как простые, префиксальные и составные глаголы.

---

“Sabk-e Iroqi”da ijod qilgan oʻrta asrlarning eng yoqin shoiri Hofiz Sheroziyning gʻazallaridagi feʼllar tahlil qilindi. Ushbu gʻazallardagi feʼllar morfologik jihatdan sodda, prefiksli va qoʻshma feʼllarga ajratiladi. Hofiz gʻazallarini tahlil qilish tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan bir qancha ijobiy ahamiyatga molikdir:

Birinchidan, Hofiz Sheroziyning gʻazallari klassik fors tilida bitilgani uchun grammatik qonun-qoidalariga anʼanaviy yoʻsinda yaxshi va puxta rioya qilingan. Uni grammatik jihatdan tahlil qilishda bu jihat oʻta muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, undagi feʼllarni tahlil qilish orqali kontekstga bogʻliq holda feʼllar turli xil maʼnolarni kasb etishini oʻrganish mumkin. Chunki sheʼriyat nuqtai nazaridan soʻzlar oʻz maʼnolaridan tashqari koʻchma va ramziy maʼnolarda koʻp qoʻllanadi.

Uchinchidan, g‘azallardagi ba’zi fe’llar hozirgi kunda kam ishlatiladi yoki umuman ishlatilmaydi. Bu orqali hozirgi va klassik fors tili grammatikasidagi xronologik o‘zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Bu xususiyat natanho zamonlarosha leksik evrilishlarni, balki Hazrat shoirning so‘zlarga yangi ma’nolar baxsh etganini ham namoyon etishi mumkin.

Shuningdek, ba’zi bir jihatlarni e’tibordan chetda qoldirmaslik ham kerak:

Birinchidan, ayrim fe’llarning iste’molidagi o‘zgachalik o‘sha zamon odati yuzasidan emas, balki qofiya va vazn talabidan kelib chiqib yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan esa davr an’anasiga ko‘ra Hofiz Sheroziy she’rlarida arab tiliga juda ham ko‘p murojaat qiladi, shuning uchun fors grammatikasidan tashqari arab grammatikasidagi ba’zi bir morfologik o‘zgarishlarni tahlil qilishga to‘g‘ri keladi.

Tadqiqotning maqsadi:

Hofiz Sheroziyning mazkur g‘azallaridagi fe’llar morfologik sathda tahlil qilinadi va o‘rganiladi. Klassik davrga xos bo‘lgan tarkibiy tuzilish va yasallishga alohida ahamiyat qaratiladi. Fors tilida fe’llar faqatgina affiksatsiya va kompozitsiya usullari orqali hosil qilinadi. Mahsuldorlik jihatidan kompozitsiya usuli yetakchilik qiladi. Zamonaviy fors tilida deyarli affiksatsiya usuli orqali yangi fe’llar hosil qilinmaydi.

Asosiy qism:

“Fors tilida ot, sifat so‘z turkumlarini yaratilishida turli usullar (affiksatsiya, poluaffiksatsiya, transpozitsiya, so‘z birikmalarining lug‘aviy birlikka aylanishi, qo‘shma so‘zlarning yasallishi)dan foydalanilgan bo‘lsa, sodda yoki old ko‘makchili fe’llar (prefiksli fe’llar) hosil qilish uchun faqat affiksatsiya usuli ishlatilgani kuzatilgan. Hozirgi paytda yangi sodda fe’llarning, prefiksli fe’llarning hosil bo‘lishi mutlaqo uchramaydi. Qo‘shma fe’llar esa “ot+fe’l” modeli asosida yasalgan va hozirda ham bu jarayon davom etib sobit fe’li birikmalar hosil qilinmoqda” .

Tadqiqot obyekti sifatida Hofiz Sheroziy devonining ilk sahifalaridan joy olgan 6 g‘azaldagi fe’llar ajratib olindi. Fe’l negizlari asosida fe’l masdari (harakat nomi), sifat doshlarning zamonlarda tuslanuvchi shakllari singari turli xil turkumlarga oid so‘zlar va shakllarni hisobga olmagan holda jami 81 ta fe’l tahlil qilindi.

Tarkibiy tuzilishi jihatidan fe’llarni sodda, prefiksli, qo‘shma fe’llarga ajratdik.

Sodda fe’llar

نمودن، افتادن، گشودن، گفتن، بودن، دانستن، کشیدن، ساختن، خواستن، دیدن، گرفتن، رفتن، فرمودن، شدن، بخشیدن، دادن، یافتن، بردن، داشتن، زیبایی، جستن، آمدن، افشاندن، توانستن، نشستن، شمردن، پسندیدن، کوشیدن، سوختن، نگرستن، پوشیدن، پناهیدن، اندیشیدن، نواختن.

G‘azallar tarkibidan 34 ta sodda fe’l ajratib olindi. G‘azallar tili klassik fors tili ekanligini inobatga olgan holda shuni aytish mumkinki, hozirgi fors tiliga qaraganda klassik fors tilida sodda

fe'llarning ishlatilish ko'lamini kengroq. Hofiz g'azallaridan yig'ilgan fe'llarning 42% ini sodda fe'llar tashkil etishi buning dalilidir.

Biroq ayrim fors tili va adabiyoti bilimdonlari (xususan, Botiniy) ning uqtirishicha, fors tili - idan suffiksi orqali ko'plab fe'l yasash imkoniyatiga ega. Ammo bu imkoniyatdan faqat ayrim lahja va shevalar foydalana olishyapti, xolos. Adabiy rasmiy til doirasida buning ilojisi yo'q.

#### Qo'shma fe'llar

Qo'shma so'zlarda uning komponentlari o'z ma'nosini yo'qotadi va bir butun holda yangi bir ma'no ifodalaydi.

خون افتادن، فریاد داشتن، رنگین کردن، نهان ماندن، غائب شدن، طمع داشتن، به دست آوردن، دشنام فرمودن، دعا گفتن، دوست داشتن، گوش کردن، حدیث گفتن، غزل گفتن، در سفتن، خوش خواندن، تقدی کردن، اجازت دادن، پرسشی کردن، صید کردن، باده پیمودن، به یاد داشتن، عیب گفتن، به رقص آوردن، آشکار شدن، گذر دادن، دل رفتن، تغییر کردن، قارون کردن، سرکش شدن، عرضه داشتن، بشارت دادن، معذور داشتن، دعا رساندن، نظر راندن، مددی دادن، اشارت کردن، غلط کردن، سود داشتن، مدارا کردن، جرعه‌ای دادن، اثری کردن

Agar fors adabiy-rasmiy tilining xronologik rivojlanish yo'liga e'tibor qaratsak, o'rta fors tilidan boshlab sodda fe'llarning ishlatilish ko'lamini faqat kamayib borganiga guvoh bo'lamiz. Buning barobarida uning o'rnini to'ldirish sababidan qo'shma fe'llar ortib borgan va hozirgi vaziyat yuzaga kelgan. Fors tilidagi qo'shma fe'llarning har ikkala komponenti turli grammatik xususiyatlarni namoyon qiladi. Ot qismi etimologik jihatdan turli xil, u ham forsiy so'z, ham arabiy o'zlashma bo'lishi mumkin.

Qo'shma fe'llarning ot qismi turli xil turkumlarga mansub so'zlar bilan ifodalanishi aniqlandi:

#### a) "forscha ot + ko'makchi fe'l" modeli

خون افتادن، فریاد داشتن، دشنام فرمودن، دوست داشتن، گوش کردن، باده پیمودن، دل رفتن، سود داشتن  
نصیحت گوش کن جانا که از جان دوستتر دارند  
جوانان سعادتمند پند پیر دانا را

Nasihāt guš kon jānā ke az jān dusttar dārand,

Javānān-e saādatmand pand-e pīr-e dānā-rā

#### b) "arabcha ot + ko'makchi fe'l" modeli

Hofiz g'azallarining tiliga arab tilining ta'siri sezilarli darajada. Shu sababdan ham aksar o'rinlarda qo'shma fe'llarning ot qismi sifatida arabiy o'zlashmalar iste'mol qilinadi.

طمع داشتن، دعا گفتن، حدیث گفتن، غزل گفتن، در سفتن، تقدی کردن، اجازہ دادن، صید کردن، عیب گفتن، تغییر کردن، قارون کردن، عرضه داشتن، بشارت دادن، دعا رساندن، نظر راندن، مددی دادن، اشارت کردن، غلط کردن، مدارا کردن، جرعه‌ای دادن، اثری کردن

به ملازمان سلطان، که رساند این دعا را

که به شکر پادشاهی ز نظر مران گذارا

Be molāzemān-e soltān ke rasānad in doā-rā,

Ke be šokr-e pādšāhi ze nazar marān gedā-rā

Qo‘shma fe‘l yasashda arabcha asliy otlardan tashqari turli bob shakllaridan yasalgan arab masdarlari ham ishlatilgan. Jumladan, I, II, III, IV, V bob shakllari kuzatildi:

|   | Fe‘l bobi  | Misol        |
|---|------------|--------------|
| 1 | I          | صيد, دعا ... |
| 2 | II تفعیل   | تغییر        |
| 3 | III مفاعلة | مدارا        |
| 4 | IV افعال   | اجازت, اشاره |
| 5 | V تفعّل    | تفقّد        |

d) “forscha sifat + ko‘makchi fe‘l” modeli

رنگین کردن، خوش خواندن، آشکار شدن، سرکش شدن

سرکش مشو که چون شمع از غیرتت بسوزد

دلبر که در کف او موم است سنگ خارا

Sarkeš mašou ke čun šam' az yeyratat besuzad,

Delbar ke dar kaf-e u mum ast sang-e xārā.

Forscha sifatlar ichida خوش xoš “yaxshi”, آشکار āškār “oshkor” singari sodda sifatlar, affiksatsiya usuli orqali yasalgan رنگین rangin rangli va poluaffiksatsiya usulida yasalgan سرکش sarkāš “isyonkor” singari yasama sifatlar ishlatilgan.

e) “arabcha sifatdosh + ko‘makchi fe‘l” modeli

Qo‘shma fe‘llarni hosil qilishda arab otlari qatorida arab sifatdoshlari ham qatnashgan.

G‘azallarda I bobning فاعل qolipidagi aniq va مفعول qolipidagi majhul daraja sifatdoshlari uchradi.

غائب شدن، معذور داشتن

حافظ به خود نپوشید این خرقة می آلود

ای شیخ پاکدامن معذور دار ما را

Hāfez be xod napušid in xerqe-ye mey-ālud,

Ey šeyx-e pākdāman ma'zur dār mā-rā

Qo‘shma fe‘llarda ot qismi o‘zi bilan birga old ko‘makchi ham olib kelishi mumkin.

f) “old ko‘makchi + ot + ko‘makchi fe‘l” modeli

به دست آوردن، به یاد داشتن، به رقص آوردن

چو با حبیب نشینی و باده پیمایی

به یاد دار محبان بادپیمای را

Ču bā habib nešini va bāde peymāyi,

Be yād dār mohebbān-e bādpeymā-rā.

g) fe'lni parchalash usulida yasalganlar:

1. "HZFN + ko'makchi fe'l" modeli

گذر دادن، نهان ماندن

2. "Holat nomini bildiruvchi yasama ot + ko'makchi fe'l" modeli

پرسش کردن

غرور حسنت اجازت مگر نداد ای گل

که پرسشی نکنی عندلیب شیدا را

Ğorur-e hosnat ejāzat magar nadād ey gol

Ke porseši nakoni andalib-e sheydā-rā

Prefiksli fe'llar

بر بستن، دریافتن، برخاستن، باز دیدن، بر افروختن، برون آوردن

a) bar orqali yasalgan prefiksli fe'llar:

پیشوند بر سر فعل می‌آید و معمولاً مفهوم جدیدی به آن اضافه می‌کند (فرهنگ بزرگ سخن)

“bar prefiksi fe'lning boshida keladi va odatda unga yangi tushuncha qo'shishga xizmat qiladi” Fors lug'atnomalariga ko'ra “bar” prefiksi orqali yasalgan 97 ta fe'l bor. بررسی افعال پیشوندی (Barrasi-ye afāl-e pišvandi dar zabān-e fārsi az manzar-e sarf-e sāxt) در زبان فارسی از منظر صرف ساخت maqolasida yozilishicha, bar prefiksini tashiydigan ma'nosiga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Fe'l biron-bir narsaning ustida, yuza qismida yuz berishini ifodalash uchun keladi.

2. Fe'l ma'nosini deyarli o'zgartirmaydi, shunchaki harakat tezroq, chaqqonroq amalga oshganini bildirishi mumkin .

barabastan “ustiga bog'lamoq”, barxāstan “turmoq”, barafroxtan “yondirmoq”, “shu'la yoqmoq”, “ko'tarmoq”:

کشتی شکستگانیم ای باد شرطه برخیز

باشد که باز بینم دیدار آشنا را

Kešti-ye šekastgāniyam ey bād-e šorte bar xiz,

Bāšad ke bāz binam didār-e āšnā-rā

b) dar orqali yasalgan prefiksli fe'llar:

dar prefiksi orqali fors tilida yuzdan ziyod fe'l yasalgan. dar prefiksi qo'shilishi natijasida yuzaga chiquvchi ma'nolarni ikki qismga bo'ladilar:

1. Prefiks qo'shilishi bilan so'zning sintaktik xususiyatlari o'zgaradi.

2. Prefiks qo'shilishi bilan so'zning sintaktik xususiyatlari o'zgarib qolmaydi.

Ba'zida nafaqat sintaktik o'zgarish, balk leksik o'zgarish ham kuzatilmaydi .

daryāftan “bilmoq”, “xabardor bo'lmoq”.

ز روی دوست دل دشمنان چه دریابد

چراغ مرده کجا شمع آفتاب کجا

Ze ru-ye dust del-e došmanān če dar yābad,

Čerāg-e morde kojā šam'-e āftāb kojā

c) باز bāz orqali yasalgan prefiksli fe'llar:

جزء پیشین بعضی از افعال، که اغلب به معنی دوباره، مجدداً، از نو، یا برای تاکید می‌آید (فرهنگ بزرگ سخن)

Demak, bu prefiks o'zida - qaytalanish, takrorlanish, yangilanish va tiklanishni ifoda etadi. باز bāz prefiksi asosida yasalgan 64 ta fe'l fors lug'atlarini to'ldirgan. "بررسی افعال پیشوندی در زبان فارسی". "از منظر صرف ساخت maqolasida yozilishicha باز bāz prefiksi asosida yasalgan fe'llarni ma'nosiga ko'ra 3 qismga ajratish mumkin:

1. Fe'ning yuz berishini ta'kidlash yoki takrori uchun keladi.

2. Fe'lga (zamonli yo makonli) orqaga, ortga ma'nosini berish uchun keladi.

3. Fe'lni ikkinchi marotaba bajarilishini ifodalash uchun keladi.

bāzdidan "ikkinchi marta ko'rmoq", "qayta ko'rmoq"

کشتی شکستگانیم ای باد شرطه برخیز

باشد که باز بینم دیدار آشنا را

Kešti-ye šekastgāniyam ey bād-e šorte bar xiz,

Bāšad ke bāz binam didār-e āšnā-rā

e) برون borun orqali yasalgan prefiksli fe'llar:

برون آوردن

Bu prefiks yuqori stildagi adabiy poetik matnlarda ishlatiladi. U برون prefiksining qisqa shaklidir. U fizik va ruhiy-ma'naviy holatda ichkaridan tashqariga harakatni ifodalaydi.

من از آن حسن روزافزون که یوسف داشت دانستم


که عشق از پرده عصمت برون آرد زلیخا را

Man az ān hosn-e ruzafzun ke yusof dāšt dānestam,

Ke ešq az parda-ye esmat borun ārad zolayxā-rā

Xulosa. Fors tilida gapda fe'l so'z turkumining vazifalari va kategoriyalari turlicha va boy bo'lib, jumlaning sintaktik va semantik tugallanishida yetakchi o'rin tutadi. Fe'l orqali asosiy tushunchalar eshituvchi yoki o'quvchiga yetkaziladi, jumladan, shaxs-son, zamon, nisbat, mayl, bo'lishli va bo'lishsizlik singari. Hofiz Sheroziy g'azallarida ham fe'l turkumi asosiy o'rin egallaydi. Biz tahlil uchun tanlagan ilk 6 ta g'azalda umumiy hisobda 81 ta fe'l ishlatilgan. Bu fe'llar turli shaxs-son, zamon, nisbat shakllarida qo'llangan bo'lib, undan tashqari klassik poetik fors tiliga xos ayrim sintaktik va morfologik xususiyatlarni aks ettiradi. Masalan, zamonaviy fors tilida "S+O+V" tartibiga amal qilinsa, klassik fors tilida esa arab tiliga o'xshash holatda fe'lni jumla boshida yoki o'rtasida ham ko'rishimiz mumkin. Ularni mana shunday xususiyatlarini biroz nazardan chetda qoldirgan holda maqolada ularning struktur tuzilishiga ahamiyat qaratildi. Zamonaviy fors tilida kompozitsiya

usulida fe'l yasalishi yetakchilik qiladi. Ammo g'azallarda sodda fe'llarning ham qo'llanish ko'lami qo'shma fe'llarniki bilan deyarli teng darajada. Umumiy 81 ta fe'ldan 34 ta sodda, 41 ta qo'shma va 6 ta prefiksli fe'l aniqlandi.



Eng asosiy o'rin tutgan qo'shma fe'llar bir necha model asosida yasalgani ma'lum bo'ldi. Qo'shma fe'llarni hosil qilishda ismiy qism sifatida arabcha ot, sifatdosh, masdar singari o'zlashma so'zlardan keng foydalaniladi. Shu bilan birga forsiy ot va sifatlar ham fe'lning ismiy qismi sifatida kela oladi. Hofiz Sheroziy keltirgan fe'llarda arabcha o'zlashmali fe'llar yetakchilik qiladi va bu holatni u ijod qilgan iroqiy sabki bilan izohlash mumkin. Fe'llarning ismiy qismining 56% foizi arabcha o'zlashmalardan va 44% foizi forsha so'zlardan tashkil topgan. Arabcha o'zlashmalar orasida sifatdoshtar (2 ta) kam uchradi. Arabcha ism turkumi (21) sermahsul. Forsha so'zlardan yasalgan qo'shma fe'llarda ham sifatlar kamroq (4ta) va otlar ko'proq (8ta) sonni tashkil qildi. Demak, qo'shma fe'llar asosan ot turkumidan yasaladi.

Ko'makchi fe'l vazifasi uchun maxsus fe'l yo'qligi sababidan ayrim sodda fe'llar shu vazifada keladi. G'azallardagi fe'llar tarkibiy tuzilishi jihatidan shu qadar boyki, unda 15 xil fe'l ko'makchi fe'l vazifasida kelgan:

أوردن fe'lidan ikkita, افتادن, پيمودن, ماندن, فرمودن, سفتن, خواندن, رفتن, رساندن, راندن, داشتن fe'lidan yettita, كردن fe'lidan o'n bitta qo'shma fe'l hosil bo'lgan. کردن va داشتن fe'llari qo'shma fe'l hosil qilishda sermahsuldir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ali Akbar Dehkhoda. Loghat nāme Dehkhoda – Iran, Tehran. 1931.
2. Jibrān Mas'ud. معجم الرائد “Mu'jamu ar-raaid” // (دار العلم) Daar al-ilm. – Livan (Lubnon), Bayrut, 1992 (ilk nashr 1964).



3. Mohammad Mo'in. فرهنگ فارسی معین "Farhang-e fārsi-ye Mo'in" – Iran, Tehran. 1972.
4. Muhammad Rizo Botiniy «فارسی زبان عقیم؟» maqolasi, 1368.
5. معجم الوسيط "Mu'jamu al-vasit" // (مكتبة الشروق الدولية) "Sharq xalqaro kutubxonasi". – Misr, Qohira, 2011.
6. Parviz Notil Xonlari "درباره زبان فارسی" // (آبان ماه 1340 هـ) انتشارات سخن
7. Р у б и н ч и к Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка // "Восточная литература". – Москва, 2001.
8. Hojiyev A. Fe'l. – T.: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1973.
9. بررسی افعال پیشوندی در زبان فارسی از منظر صرف ساخت (Barrasi-ye af'āl-e pišvandi dar zabān-e fārsi az manzar-e sarf-e sāxt). ص. ۳۵-۵۴. تهران، ۱۳۹۸.
10. Xodiyeva N.T., Ahmedova D.R., Habibova M.R. Hozirgi zamon fors tilida sodda fe'l asosida tuzilgan qo'shma fe'llarning struktur tahlili" // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science. 2022, B. 534-540.